

„O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI” KITOBINING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

dilnurasotimboyeva@gmail.com

Rahimboyeva Shahribonu Sherzod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada lug‘atshunoslikning o‘rganilishi uchun asos tamaltoshi bo‘lib xizmat qilayotgan „O‘zbek tilining izohli lug‘ati” kitobining bugungi kundagi o‘zbek tilshunoslikdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Ensiklopedik, lingvistik lug‘at, izohli lug‘at.*

Абстрактный: *В данной статье рассматривается значение книги «Аннотированный словарь узбекского языка», которая служит краеугольным камнем изучения лексикологии, в современном узбекском языкознании.*

Ключевые слова: *Энциклопедический, лингвистический словарь, толковый словарь.*

Annotation: *This article discusses the importance of the book "Annotated Dictionary of the Uzbek Language", which serves as a foundation stone for the study of lexicology, in today's Uzbek linguistics.*

Key words: *Encyclopedic, linguistic dictionary, explanatory dictionary.*

Har qanday xalqning betakror milliy boyligi uning o‘z so‘zlari hamda turg‘un iboralaridir. Zamon va makon ta‘sirida tilning lug‘at boyligi doimiy ravishda rivojlanib boradi. Hayot, turmush tarzi taraqqiyot va kashfiyotlar yangi-yangi so‘zlar, tushunchalarni dunyoga keltiradi, ba‘zi so‘zlar esa eskirib iste‘moldan chiqadi. Ana shunday dinamik rivojdagi bebaho boylikni o‘z vaqtida tarix zarvaraqlariga muhrlanib, tilning oltin sahifalarini durlar bilan to‘ldirib boriladi. So‘zlarning ma‘lum maqsad bilan to‘plangan tartibga solingan kitob yoki



boshqa shakldagi to'plami lug'at deyiladi. Lug'atlar turli maqsadlarga tuziladi. Ko'zlangan maqsad jihatidan lug'atlar 2 xil bo'ladi.

1) Ensiklopedik (Qomusiy) lug'atlar

2) Lingvistik lug'atlar

Mazkur ikkita guruhdan ensiklopedik lug'at turiga kiruvchi „O'zbek tilining izohli lug'ati“ shu kungacha chiqarilgan eng ko'lamli o'zbekcha izohli lug'atlardan biridir. Bu lug'at besh jildli bo'lib, 1981-yil chop etilgan. Bu kitobning chop etilishi ikki jildli izohli lug'atga asoslangan. Bu kitob 1981-yilda yozilganligiga qaramasdan ancha yil keyin ya'ni 2006-2008-yillarda „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyotida bosilib chiqqan. Hozirgi kunda esa, o'zbek tilining olti jildli izohli lug'ati 2022-yil lotin yozuvida tayyorlandi. Loyiha O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori insituti hamkorlikda, O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan.


Lug'at deyarli to'liq tarzda 2006—2008-yillarda kirill yozuvida bosilib chiqqan izohli lug'atga tayanadi. Lotin yozuvidagi nashr avvalgi nashrlarga muharrirlik qilgan Abduvahob Madvaliyev bilan bir qatorda Durdona Xudoyberganova tahriri ostida tayyorlangan. Lotin yozuvidagi lug'atdan kirill yozuvidagi versiyaga kiritilmagan 3 mingga yaqin so'z o'rin olgan.

Lug'atga hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llaniladigan 80 000 so'z va so'z birikmalari, fan, texnika, san'at va madaniyat sohaslariga oid atamalar, ayrim shevaga oid hamda tarixiy va eskicha so'zlar kiritilgan. Lug'atda so'zlarning qo'llanilishi o'zbek adabiyoti va matbuotidan olingan misollar bilan dalillangan.

Lug'atda 1990-yillarda qabul qilingan qoidalardan farqli o'laroq, kirill yozuvidagi „я“ hamda „ё“ harflari undosh harflardan keyin mos ravishda „ya“ va „yu“ o'laroq yozilgan. Xususan, oy nomi „sentabr“ emas, balki „sentyabr“ o'laroq yozilgan. Shuningdek, qo'shtirnoqlar 1990-yillarda ishlab chiqilgan punktuatsiya qoidalari degidek „...“ shaklida emas, balki inglizcha apostroflardek „...“ yozilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lug'atlar hayotimizning doimiy hamrohi bo'lib, bilimimizni kengaytirish, til madaniyatimizni yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Ular haqli ravishda sivilizatsiya yo'ldoshlari deb ataladi. Lug'atlar chinakamiga milliy tilning bitmas-tuganmas xazinasidir. Aynan lug'atlar xalq taraqqiyotining moddiy va ma'naviy madaniyat sohasidagi muvaffaqiyatlarini aks ettirishga da'vat etilgan. Fransuz lug'atshunosi Alan Rey „zamonaviy sivilizatsiya lug'at sivilizatsiyasi“ deb tog'ri ta'kidlagani ajablanarli emas. Bu bilan u lug'atlarning zamonaviy dunyoda hayotimizning barcha jabhalariga kirib borishi muhim rolini ta'kidlamoqchi edi.





Mashhur fransuz yozuvchisi Anatol Frans shunday yozgan edi: „Lug‘atlar alifbo tartibida butun koinotdir! O‘ylab qarasangiz, lug‘at kitoblar kitobidir. U boshqa barcha kitoblarni o‘z ichiga oladi, siz ularni faqat undan chiqarib olishingiz kerak”.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Islomov I, Bobojonov Sh. „O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati” 2007-2009.
2. Gak VG, Royzenblit E.B.. Fransuz va rus tillarini qiyosiy o‘rganish bo‘yicha insholar. –M.:Oliy maktab, 1965.
3. Arxiv.uz
4. Wikipedia. <https://uz.m.wikipedia.org>

